

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini rasmiylashtirish, yerga egalik qilish huquqini beruvchi davlat aktini tayyorlash va topshirish

Bugun 14 dekabr 2018 yil 08.30 da 5410700-yer tuzish va yer kadastri ta'lim yo'nalishi 3 bosqich 7-guruxga talabalariga "yer tuzish" fanidan ochiq amaliy mashg'ulot bo'lib o'tdi. Mashg'ulotni Yerdan foydalanish kafedrasida assistenti Usmonov Yusuf Aliqulovich o'tib berdi. Dars avvalida o'qituvchi talbalarga "Yer kodeksi"ning 33 moddasida keltirilgan Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar haqida tushincha berdi:

- yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati;
- yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati
- yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqini beruvchi davlat orderi
- yer uchastkasi ijarasi shartnomasi yoki yer uchastkasidan muddatli foydalanish shartnomasidir.

Shundan so'ng ushbu hujjatlarda yer uchastkasi qaysi huquqqa asosan berilganligi, yer uchastkasidan foydalanishning belgilangan maqsadi, uni o'zlashtirish muddati, yer uchastkasini saqlash vazifalari va servitutlar ko'rsatilishi, guvohnomaga yer uchastkasining chegaralari chizmasi (plani) ilova qilinishi haqida to'liq ma'lumot berdi. Xujjatlar na'munalri bilan har bilan talaba tanishib chiqdi.



O'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi Maftuna Tosheva axboroti